



## MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYASI

**Asrorov Zafar Husniddin o'g'li**

*O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Markaziy osiyo davlatlarining integratsiyasi tendensiyasi, shu bilan birgalikda integratsiyalashuv jarayonini retrospektiv va diagnostik hamda prognosti metodlar bilan tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Markaziy osiyo, integratsiya, maslahatlashuv uchrashuvlari, C5+1 formatidagi uchrashuvlar, institutsional, normativ, madaniy, kommunikativ.*

Davlatlarning siyosiy integratsiyasi jarayoni judayam murakkab fenomenal tendensiya hisoblanadi bugungi kunda siyosiy integratsiyaning birqancha adekvat analogiyalari mavjud masalan Yevropa ittifoqi yoki ASEAN tashkilotlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin muayyan bir mintaqada joylashgan davlatlarning integratsiyalashuv jarayoniga kirishiga stimuly beruvchi birqancha egzestensiyal yuzaga keladigan manfaatlar bo'lishi mumkin masalan bu manfaatlar quyidagi tarmoq sohalarda keng yuzaga keladi bular savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, xavfsizlik, ekologik, hamda transport-logistika sohalari hisoblanadi.

Umuman olganda integratsiya degani bu integratsiyani tashkil etuvchi subyektlarni o'zlarining ma'lum bir darajadagi suveren huquqlarini o'zlaridan yuqori turuvchi subyektga ya'ni institutga taqdim qilishdir, bu orqali davlatlar o'zlarining umumiy manfaatlariga erishadilar.

Markaziy Osiyo davlatlari suverenitetga erishganidan so'ng, mintaqada davlatlarining integratsiyasi aktual pog'onaga ko'tarildi. Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonini 3 davrga bo'lib tahlil qilish mumkin.

**Birinchi davr:** 1991-yildan 2005-yilgacha bo'lgan davr. Bu davrda markaziy osiyo davlatlari uchun suverenitet fenomeniga to'yinish davri bo'ldi, shu bilan birgalikda mintaqada davlatlari o'zaro diplomatik munosabatlarini o'rnatishdi va, asosan, savdo-iqtisodiy hamda transport-logistika tarmoqlaridagi o'zaro hamkorlikning fundamental asoslari yaratildi. Shu bilan birgalikda ushbu birinchi davr oralig'ida MOHT ya'ni Markaziy osiyo hamkorligi tashkiloti tuzildi va bu tashkilotga keyinchalik Rossiy federatsiyasining qo'shilishi natijasida tashkilot Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqiga aylantirildi.

**Ikkinchi davr:** 2006-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davr. Bu davrni ko'plab Siyosatshunoslar "Muzlatilgan davr" deb nomlanganining sababi – bu davrda mintaqada davlatlari o'rtasida turli darajada chegaraviy va etnik konfliktlar sodir bo'ldi. Bundan tashqari, bu davrda O'zbekiston ma'muriyati Qirg'izistondagi "Qambarota" hamda Tojikistondagi "Rog'un" GESlarining qurilishida aniq bir siyosiy murosaga erisha olmadi. Ammo bu ikkinchi davr oralig'ida mintaqaviy hamkorlik "muzlagan" bo'lsa ham



mintaqa davlatlarining ikki tomonlama o'zaro hamkorliklari turli xil darajada saqlanib turdi.

**Uchinchi davr:** 2017-yildan bugungi kungacha bo'lgan yangi davr. 2016 yil yakunida O'zbekistonga yangi ma'muriyat keldi. Shavkat Mirziyoyev bundan buyon O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasi bilan hamkorlik eng ustuvor vektor bo'lishini takidlagi va prezident Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan O'zbekiston Respublikasi mintaqadagi o'zi bilan chegaradosh bo'lgan davlatlar bilan barcha soha va tarmoqlardagi hamkorligi yangi bir sifat bosqichiga chiqdi. O'zbekiston qo'shni davlatlari bilan yillar davomida shakillangan konfliktlarni diplomatik murosaga erishish yo'li bilan yuqori darajada ijobiy hal qilishga erishdi. Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi va tashabbusi bilan mintaqaviy integratsiyaga erishish uchun 2018-yil mart oyida Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahatlashuv uchrashuvi bo'ldi. Bu *birinchi* muloqotda davlat rahbarlari maslahatlashuv uchrashuvlarini yilda bir marta o'tkazishga kelishib olishdi.

*Ikkinchi* maslahatlashuv uchrashuvi 2019-yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. *Uchinchi* maslahatlashuv uchrashuvi 2021-yil Turkmanistonning Avaza shahrida bo'lib o'tdi. *To'rtinchi* maslahatlashuv uchrashuvi 2022-yil Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tdi va *beshinchi* maslahatlashuv uchrashuvi 2023-yil Tojikistonning poytaxti Dushanbe shahrida bo'lib o'tdi. *Oltinchi* maslahatlashuv uchrashuvi 2024-yil Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tdi. Aynan manashu oltinchi maslahatlashuv uchrashuvida Markaziy osiyo davlat rahbarlari tomonidan bir qancha unikal integratsion taklif va tashabbuslar ilgari surildi jumladan prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoda milliy ID-kartalarni o'zaro tan olishni taklif qildi ya'ni O'zbekiston prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvida turistik almashuvni kengaytirish maqsadida "Bitta tur – butun mintaqa" tamoyili bo'yicha milliy ID-kartalarni o'zaro tan olish va ommaviy turistik mahsulotlarni ishlab chiqish masalalarini o'rganib chiqishni taklif qildi. Prezident To'qayev Markaziy Osiyo davlatlarini mudofaa siyosatida hamkorlik qilishga chaqirdi, Qozog'iston rahbari mintaqa yaqinida murakkab harbiy-siyosiy vaziyat hamon mavjudligini eslatib, mudofaa siyosati va xavfsizlik sohasida birgalikda harakat qilish zarurati paydo bo'lganini ta'kidlagi. Buning uchun mintaqa xavfsizlik arxitekturasini yaratish bu orqali esa mintqa xavfsizligiga tahdid soluvchi xavflar katalogini tuzib chiqish zarur ekanligi takidlandi. Prezident Imomali Rahmon Markaziy Osiyo kelajagi uchun umumiy pozitsiyani shakllantirish kerakligini aytdi, O'sib borayotgan global chaqiriq va tahdidlar fonida Tojikiston prezidenti xavfsizlik sohasida hamkorlikning yangi samarali shakllarini ishlab chiqish taklifini berdi.

Maslahatlashuv uchrashuvlari Markaziy Osiyo davlatlarining institutsional integratsiyasi uchun yangi bir platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Yuqoridagi bo'lib o'tgan uchrashuvlarda davlatlararo va mintaqaviy miqyosida hamkorlik munosabatlari barcha soha va tarmoqlarda yanada kuchaydi. Jumladan siyosiy, iqtisodiy, savdo, logistika, ta'lim va madaniyat, xavfsizlik sohalarida hamda dolzarb bo'lgan ekologik muamolarni oldini olish va suv resurslaridan foydalanish sohalarida ham hamkorlik



munosabatlari konstruktiv ruhda tizimlasha boshladi. Chegaraviy nizolarni yechishda kompromissga erishildi. Jahon miqyosida mintaqaning yangi bir ijobiy imiji shakillandi, buni dalilini C5+1 formatidagi uchrashuvlarda ko'rish mumkin. Dunyo hamjamiyati Markaziy Osiyoni yaxlit bir mintaqqa sifatida ko'ra boshladi bu albatta mintaqaning institutsional birlashuviga katta turtki bermoqda. Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan beshinchi maslahatlashuv uchrashuvidan so'ng, keyingi maslahatlashuv uchrashuvlarini yanada samarali o'tkazish uchun davlat rahbarlarining maxsus koordinatorlari faoliyat boshlaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasining istiqboldagi integratsiyalashuvini to'rtta komponent orqali prognoz qilib ko'rish mumkin.

**Birinchi: institutsional komponent** bunda mintaqqa davlatlari yagona mintaqaviy institutga ya'ni tashkilotga birlashishlari kerak bunga hozirda bo'layotgan davlat rahbarlarining maslahatlashuv uchrashuvi asos bo'la olishi mumkin.

**Ikkinchi: normativ komponent** bunda mintaqqa davlatlarining institutsional birlashishlari uchun yagona va umumiy me'yoriy normativ huquqiy hujjat ishlab chiqish zarur maslan, "*Markaziy osiyo davlatlarining xartiyasi*".

**Uchinchi: madaniy (mafkuraviy) komponent** bu jihatdan mintaqqa tarixan shakillangan katta ambitsiyalariga ega masalan, mintaqqa davlatlarida yashovchi aholining asosiy qismi turkiy va forsiy(tojik) tilida gaplashadi, aholining katta qismi islom diniga e'tiqod qiladi. Bundan tashqari Markaziy Osiyo mintaqasiga tarixan shakillangan yagona Turon, Turkiston deb nomlangan qarashlar bor.

**To'rtinchi: komunikativ komponent** bunda mintaqqa davlatlararo sifatli xalq diplomatiyasini rivojlantirish, mintaqaning umumiy yagona axborot platformasini yaratish zarur masalan "Markaziy osiyo" TV qolaversa, ta'lim sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish mintaqqa komunikativlik aloqalarini mustahkamlay oladi ya'ni masalan Markaziy osiyo universitetini tashkil etish.

Markaziy osiyoning institutsional birlashuvi mintaqani globalmiqyosida ahamiyati hamda ro'lini yanada oshiradi. Bu orqali mintaqaning beshta davlati "zayif davlatchilik" kompleksidan chiqib, markaziy osiyo davlatlari mintaqaviy yirik aktorga aylanish imkoniyati yuqori.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sarvarjon G'ofurov MARKAZIY OSIYO: Mintaqaviy Tahdidlar, Integratsiya, Zamovaviy Siyosiy Jarayonlar.
2. M. Qirg'izboyev "Siyosatshunoslikga kirish" (2013y)
3. Vladimir Tumanov "Jamiyatning siyosiy tashkiloti" (1975y)
4. Gabriel Almond "Siyosiy madaniyat" (1963y)